



CLASSIFICATION OF PERSIAN LOANWORDS IN THE EPIC 'KHOSROW AND SHIRIN'

Nozima Mamirboyeva

Institute of Eastern Languages and Literatures

Tashkent State Institute of Oriental Studies

E-mail: nozimamamirboyeva0@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

O. Turdiyeva

Doctor of Philology

Associate Professor of "Iranian and Afghan Studies"

Tashkent State University of Oriental Studies School

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Nizami Ganjavi, Qutb Khwarezmi, "Khamsa" tradition, "Khosrow and Shirin" epic, Persian loanwords, parts of speech.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article is dedicated to the classification of Persian loanwords in the Turkish translation of Nizami Ganjavi's "Khosrow and Shirin," which was carried out by Qutb Khwarezmi. In particular, the Persian loanwords in the "Beginning of the Khosrow and Shirin narrative" section are analyzed and categorized into groups.

"XUSRAV VA SHIRIN" DOSTONIDAGI FORSIY O'ZLASHMALAR TASNIFIGA DOIR

Nozima Mamirboyeva

2-kurs mumtoz fors-ingliz guruhi talabasi

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: nozimamamirboyeva0@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti

TDShU

Toshkent, O'zbekiston

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Nizomiy Ganjaviy, Qutb Xorazmiy, “Xamsa” chilik an’anasi, “Xusrav va Shirin” dostoni, forsiy o‘zlashmalar, so‘z turkumlari.

Annotatsiya: Ushbu maqola Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonining Qutb Xorazmiy tomonidan amalga oshirilgan turkiy tarjimasidagi forsiy o‘zlashmalar tasnifiga bag‘ishlanadi. Xususan, “Xusrav va Shirin hikoyatining avvali” qismidagi forsiy o‘zlashmalar tahlil qilinadi, turkumlarga ajratiladi.

КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕРСИДСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ЭПОСЕ 'ХОСРОВ И ШИРИН'

Нозима Мамирбоева

Студентка 2-го курса группы классического персидско-английского языка

Институт восточных языков и литературы

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: nozimamatmirboyeva0@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

O. Турдиева

доктор филологических наук

доцент кафедры "Ирановедения и афганистановедения"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Низами Гянджеви, Кутб Хорезмий, традиция "Хамсы", эпос "Хосров и Ширин", персидские заимствования, части речи.

Аннотация: Данная статья посвящена классификации персидских заимствований в турецком переводе произведения Низами Гянджеви "Хосров и Ширин", выполненном Кутбом Хорезмий. В частности, анализируются персидские заимствования в разделе "Начало повествования о Хосрове и Ширине" и классифицируются по категориям.

Ma’lumki, Nizomiy Ganjaviy xamsachilik an’anasining asoschisi hisoblanadi. U “Maxzan al-asror”, “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft Peykar”, “Iskandarnoma” dostonlarining muallifi hisoblanadi. Bu dostonlar shoirning vafotidan keyin yaxlit bir to‘plam holiga keltirilib „Panj ganj“ (“Besh xazina”) deb nomlandi va keyinchalik “Xamsa” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Mazkur dostonlar fors tilida yozilgan bo‘lib, shoirga olamshumul shuhrat keltirdi. Nizomiy ijodidan ko‘plab shoirlar ta’sirlanib, ilhomlanib, “Xamsa” chilik an’anasini davom ettirdilar. Ushbu maqola Nizomiyning ikkinchi dostoni – “Xusrav va Shirin”ning turkiy tarjimasidagi forsiy o‘zlashmalar tahliliga bag‘ishlangan. Doston 1180-1181- yillar oraliq‘ida yozilgan. Dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Xususan, XV asrda Qutb Xorazmiy sa’y harakatlari sababli bu asar turkiy tilga ham tarjima bo‘ldi.

Qutb Xorazmiy o‘z davri, ya’ni XIV asrning eng ilg‘or, kuchli shoiri va tarjimoni hisoblanadi. Ammo, adibning tarjimai holi, qachon tug‘ilib, qachon vafot etganligi haqida ham aniq ma’lumotlar mavjud emas. Xorazmiy ijodining gullab yashnagan davri Xorazm hududini qamrab olgan Oltin O‘rda davlati davriga to‘g‘ri keladi. Xususan, Oltin O‘rda xonlaridan O‘zbekxonning o‘g‘li davrida yashab, ijod etgan. O‘zbekxonning o‘g‘li shahzoda Tinibekxon Qutb Xorazmiyga “Xusrav va Shirin” asarini mukammal qilib tayyorlashi uchun saroyda barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Shoir “Xusrav va Shirin”ni masnaviy tarzida aruzning “xazaji musaddas maqsud” vaznida tarjima etar ekan, asarning asl ma’nosini, qahramonlarini va syujetini to‘liqligicha saqlagan holatda mahorat bilan tarjima qildi. Ayniqsa, bu asar asosiy qahramonlari: Xusrav, Shirin, Farhod, Mehnbonu va Shopurlarning xarakter xususiyatlarini o‘zbek tilida aynan o‘zidek berishga harakat qildi. Bunga misol qilib, Shirinning portret tasviridan parchada ko‘rishimiz mumkin:

*Sadaf ichra tizilmishtek tishlari dur,
Tishining shu’lasi durga berur nur.*

*Ajoyibroq ikki la’li badaxshon,
Ko ‘rarman bo ‘lmish ul dur uzra g‘alton.*

*Qarog‘i jodusi ko ‘rganni o ‘rtar,
Yomon ko ‘zluk ko ‘zin kun birla o ‘rtar.*

*Tilin tebratsa ul, el ko ‘nglin ovlar,
So ‘zi afsun mengizdek tilni bog ‘lar.*

Bu misralarni tarjima deb o‘ylash qiyin, go‘yoki, Nizomiy Ganjaviyning o‘zi turkiy tilda yozgandek. Buning barchasi shoirning tarjimonlik mahoratidan darak beradi. Qolaversa, she’riy vazn va qofiyalarni topishda ham tarjimon o‘z iste’dodini namoyon qilgan. Shoir go‘zal va adolatparvar Shirinni tasvirlash uchun o‘zining bor mahoratini, badiiy bo‘yoqlar orqali go‘zal bir shaklda tasvirlagan. Bunday holat boshqa obrazlarda ham kuzatiladi ayniqsa, asosiy qahramonlardan biri bo‘lgan bahodir va mehnatsevar Xusrav obrazida, Shiringa maftun bo‘lib shu yo‘lda qurban bo‘lgan Farhod obrazini gavdalantirishda, adolatli va mehribon Mehnbonu ifodasida ham ko‘ramiz.

Tarjimaning tili va til xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, adib tarjimada Xorazm shevasida ishlatiladigan so‘zlardan ham foydalangan bo‘lib, ular asarga o‘zgacha bir nafislik bag‘ishlaydi. Bundan tashqari asarda o‘sha davr aholisi so‘zlashuviga singib ketgan bir qancha arabiy va forsiy so‘zlarni ham uchratish mumkin. Ayniqsa, ulardan “Xusrav va Shirin hikoyatining avvali”

bobida bir muncha ko‘proq foydalangan. “Xusrav va Shirin hikoyatining avvali” bobi jami 106 misradan iborat. Ushbu qismda 19 ta forsiy o‘zlashmalar aniqlandi. Quyida mazkur bobda qo‘llangan so‘zlar va ularning qaysi turkumga tegishli ekanligi jadvalda keltiamiz:

No	Forscha ot shakllari	Forscha transkripsiya ¹	O‘zbekcha ma’nosi
1	داد	dAd	Fig‘on, nola
2	جهان	jahAn	Dunyo, olam
3	درگاه	dargah	Eshik, eshik ostonasi; (saroy)
4	زار	zAr	G‘amgin, qayg‘uli; yig‘i, nola
5	گوهر	Gowhar	qimmatbaho tosh
6	دریا	daryA	Katta suv, daryo
7	نشان	neSAn	Belgi, iz; muxr, tamg‘a; alomat
8	شاه	Sah	Podshoh
9	گل	Gol	gul; o‘simplik
10	روزگار	ruzegAr	o‘ziga mustaqil; bir xo‘jalik
11	هنر	Honar	Muayyan ko‘nikma; mashg‘ulot
12	دشمن	doSman	Yov, dushman, raqib
13	آگاه	AgAhi	Biluvchi, xabardor, ziyrak
14	کنچ	Ganch	Xazina, boylik

O‘zlashma otlar. Bobda eng ko‘p qo‘llanilgan forsiy o‘zlashma so‘zlar ot so‘z turkumiga mansubdir. Ushbu qismda jami o‘n to‘rt ta so‘z aynan ot so‘z turkumiga tegishli. Ularning barchasi kelishik, egalik va ko‘plik qo‘sishimchalari bilan birga kelgan bo‘lib, hech qaysi ot yasama yoki qo‘shma otlar emas, barchasi tub va soda otlardan iboratdir. Yuqoridagi, bir qancha fors tilidan o‘zlashgan otlar hozirgi o‘zbek tilidan mustahkam o‘rin olgan bo‘lib, hozirgi zamon adabiy va og‘zaki nutqida keng qo‘llaniladi. Shuni aytib o‘tish joizki, o‘rta asrlarda eng ko‘p o‘zlashmalarning manbayi bu arab va fors tilidagi so‘zlar bo‘lganligi sababli, shoir tarjimani sofligini va mukammalligini saqlab qolish uchun bir qancha forsiy so‘zlarni o‘zlashma sifatida olib ulardan o‘z tarjimasida foydalangan.

¹ Maqoladagi transkripsiya Eronning Abadis Dictionary saytidagi transkripsiya asoslanib yozilgan

No	Forscha sifat shakllari	Forscha transkripsiya	O'zbekcha ma'nosi
1	پیر	pir	Keksa, qari
2	آباد	AbAd	Gullab yashnayotgan, ishlov berilgan
3	پرویز	parviz	G'olib, Muzaffar
4	روان	ravAn	Ravon, to'g'ri, tekis,silliq
5	اسان	AsAn	Yengil, qiyin emas, soda

O'zlashma sifatlar. Fors tilidan o'zlashgan so'zlar turkiy tilning lug'atini sezilarli darajada boyitdi, ayniqsa bunda sifat so'z turkumiga oid so'zlar alohida o'rinn tutadi. Xususan, yuqoridagi bobda keltirilgan sifatlarning miqdori oz bo'lishiga qaramasdan, ulardan mukammal tarzda foydalanilgan. Jumladan, "pir", "obod", "parviz", "ravon" va "oson" sifatlari turkey tildagi tarjimada nafaqat asl ma'nolarni saqlash, uning tabiiy chiqishiga balki, vazn va qofiyalarning mutanosibligida ham katta xizmat ko'rsatdi. Shunday qilib, bu forsiy sifatlarga faqat so'z yoki gramatik birlik sifatida qarash yetarli emas. Ular badiiy nutqda nafosat yaratib, boshqa tillarni boyitishda ham o'z hissasini qo'shadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, buyuk adib Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostoni 6000 dan ziyod baytni, ya'ni 12 000 dan ortiq misrani o'z ichiga oladi. Boblarning soni 102 tani tashkil etadi. Turkiy tarjimasi Qutb Xorazmiy tomonidan masnaviy tarzida aruzning "xazaji musaddas maqsud" vaznida tarjima qilgan. Yuqorida biz faqat asarning bitta bobidagi, ya'ni "Xusrav va Shirin hikoyatining avvali" bobidagi forsiy o'zlashmalar haqida ma'lumot berib o'tdik. Butun dostondan bir necha yuzlab forsiy so'z va iboralardan foydalangani shubhasiz. Turkiy tarjimalarda qo'llangan forsiy o'zlashmalar asarga nafislik, o'ziga xos fonetik jozibadorlik baxsh etganini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Кутб Хоразмий Хусрав ва Ширин". Faafur Fulom nomidagi Adabiёт ва санъат нашриёти. Тошкент 1986.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашгриёти. Тошкент 2006.
3. <https://ganjoor.net/nezami/5ganj/khosro-shirin/>